



nevrojarrohlik – yagona platformalar orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lib, bu talabalarning tizimli klinik fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston tibbiy ta'limi tizimida ham zamonaviy va interaktiv o'qitish vositalarini joriy etish jarayoni davom etmoqda. Tibbiy universitetlarda simulyatsion markazlar, virtual laboratoriyalar va raqamli ta'lim platformalari tashkil etilmoqda. Biroq, texnologik infratuzilmani rivojlantirish, professor-o'qituvchilarni zamonaviy metodlar bo'yicha o'qitish va xalqaro tajribalarni adaptatsiya qilish borasida qo'shimcha sa'y-harakatlar zarur. Nevrologiya ta'limida zamonaviy yondashuvlarni qo'llash nafaqat talabalarning kasbiy kompetentsiyasini oshiradi, balki sog'liqni saqlash tizimiga yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash orqali umummilliy ahamiyatga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kolb D.A. Experiential learning: Experience as the source of learning and development. 2nd ed. Upper Saddle River, NJ: Pearson Education; 2015. 416 p.
2. Harden R.M., Laidlaw J.M. Essential skills for a medical teacher: An introduction to teaching and learning in medicine. 2nd ed. Edinburgh: Elsevier; 2017. 312 p.
3. Cook D.A., Hatala R., Brydges R. et al. Technology-enhanced simulation for health professions education: a systematic review and meta-analysis // JAMA. 2011. Vol. 306(9). P. 978-988.
4. Makary M., Holzmüller C., Thompson D. et al. Operating room briefings: working on the same page // Joint Commission Journal on Quality and Patient Safety. 2006. Vol. 32(6). P. 351-355.
5. McGaghie W.C., Issenberg S.B., Petrusa E.R., Scalese R.J. A critical review of simulation-based medical education research: 2003-2009 // Medical Education. 2010. Vol. 44(1). P. 50-63.
6. Ellaway R.H., Masters K. AMEE Guide 32: e-Learning in medical education Part 1: Learning, teaching and assessment // Medical Teacher. 2008. Vol. 30(5). P. 455-473.
7. Ruiz J.G., Mintzer M.J., Leipzig R.M. The impact of e-learning in medical education // Academic Medicine. 2006. Vol. 81(3). P. 207-212.
8. Wijnen-Meijer M., ten Cate O., van der Schaaf M., Harendza S. Graduates from vertically integrated curricula // Clinical Teacher. 2013. Vol. 10(3). P. 155-159.
9. Barrows H.S., Tamblyn R.M. Problem-based learning: An approach to medical education. New York: Springer Publishing Company; 1980. 206 p.
10. Schmidt H.G., Rotgans J.I., Yew E.H. The process of problem-based learning: what works and why // Medical Education. 2011. Vol. 45(8). P. 792-806.
11. Thistlethwaite J.E., Davies D., Ekeocha S. et al. The effectiveness of case-based learning in health professional education. A BEME systematic review: BEME Guide No. 23 // Medical Teacher. 2012. Vol. 34(6). P. e421-e444.
12. Wosinski J., Belcher A.E., Dürrenberger Y. et al. Facilitating problem-based learning among undergraduate nursing students: A qualitative systematic review // Nurse Education Today. 2018. Vol. 60. P. 67-74.
13. Consorti F., Mancuso R., Nocioni M., Piccolo A. Efficacy of virtual patients in medical education: A meta-analysis of randomized studies // Computers & Education. 2012. Vol. 59(3). P. 1001-1008.
14. Guze P.A. Using technology to meet the challenges of medical education // Transactions of the American Clinical and Climatological Association. 2015. Vol. 126. P. 260-270.
15. Nicholson L.L., Reed D., Chan C. An interactive, multi-modal Anatomy workshop improves academic performance in the health sciences: a cohort study // BMC Medical Education. 2016. Vol. 16. P. 7.
16. O'rmonjonov Azizbek Muhammadjon o'g'li. (2025). MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA MUSIQIY TA'LIMNI TASHKIL ETISH METODIKASI. *Kelajak o'qituvchisi - Kelajak Bunyodkori*, 1(1), 470-475.
17. Ramziddin Tursunov. (2025). IJTIMOIIY ONG VA MA'NAVIYAT TUSHUNCHASI HAMDA UNING MAZMUN-MOHIIYATI. *Kelajak o'qituvchisi - Kelajak Bunyodkori*, 1(2), 36-40.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KOGNITIV QOBILIYATLARI VA TANQIDIY FIKRLASHINI CHET TILI DARSLARI ORQALI OSHIRISH

Holboyeva Nodiraxon Abdumalik qizi

Namangan davlat universiteti tayanch-doktoranti

nkholboeva469@gmail.com



Annotatsiya. Maqolada boshlang’ich sinf ingliz tili darslarida neyropedagogik yondashuv asosida o’quvchilarning tanqidiy fikrlash faoliyatlarini rivojlantirish masalalari ko’rib chiqilgan. Tadqiqotda neyropedagogikaning asosiy tamoyillari, tanqidiy fikrlashning mohiyati va xususiyatlari tahlil qilingan. Miya faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda boshlang’ich sinf o’quvchilarida ingliz tilini o’rgatish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari ishlab chiqilgan. Amaliy tajriba natijalari neyropedagogik yondashuvning boshlang’ich ta’limda samaradorligini ko’rsatadi. Maqolada zamonaviy ta’lim texnologiyalari va interaktiv metodlardan foydalanish yo’llari tavsiya etilgan.

Kalit so’zlar: neyropedagogika, tanqidiy fikrlash, boshlang’ich sinf, ingliz tili, miya faoliyati, interaktiv metodlar, kognitiv rivojlanish, ta’lim texnologiyalari

ENHANCING COGNITIVE ABILITIES AND CRITICAL THINKING OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH FOREIGN LANGUAGE LESSONS

Holboyeva Nodirakhon Abdumalik qizi

Doctoral student of Namangan State University

nkholboeva469@gmail.com

Abstract. The article examines the issues of developing critical thinking activities of students based on a neuropedagogical approach in primary school English lessons. The study analyzes the basic principles of neuropedagogy, the essence and characteristics of critical thinking. Methods for teaching English and developing critical thinking in primary school students have been developed, taking into account the characteristics of brain activity. The results of practical experience demonstrate the effectiveness of the neuropedagogical approach in primary education. The article recommends ways to use modern educational technologies and interactive methods.

Keywords: neuropedagogy, critical thinking, primary school, English language, brain activity, interactive methods, cognitive development, educational technologies.

ПОВЫШЕНИЕ КОГНИТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПОСРЕДСТВОМ УРОКОВ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Холбоева Нодирахон Абдумалик кизи

Докторант Наманганского государственного университета nkholboeva469@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы развития деятельности критического мышления учащихся на основе нейропедагогического подхода на уроках английского языка в начальной школе. В исследовании проанализированы основные принципы нейропедагогики, сущность и особенности критического мышления. Разработаны методы обучения английскому языку и развития критического мышления у учащихся начальных классов с учетом особенностей деятельности головного мозга. Результаты практического опыта показывают эффективность нейропедагогического подхода в начальном образовании. В статье рекомендованы способы использования современных образовательных технологий и интерактивных методов.

Ключевые слова: нейропедагогика, критическое мышление, начальная школа, английский язык, деятельность мозга, интерактивные методы, когнитивное развитие, образовательные технологии.

Kirish. XXI asr zamonaviy ta’lim paradigmasida o’quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish strategik ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PQ-4708-son qarori “Ta’lim sifatini oshirish va iste’dodli yoshlarni qo’llab-quvvatlashning samarali tizimini yo’lga qo’yish chora-tadbirlari to’g’risida” ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar va ilg’or pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati alohida ta’kidlangan [1].

Boshlang’ich ta’lim davri bolaning intellektual, kognitiv, ijtimoiy-psixologik va shaxsiy rivojlanishining kritik bosqichi hisoblanadi. Aynan bu ontogenetik davrda bolaning miya tuzilishi va funksional tizimi intensiv morfofunktsional transformatsiyaga uchrashi, plastisitesi maksimal darajaga



yetishi hamda yangi bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni o‘zlashtirishga optimal neyrofiziologik asoslar yaratilishi ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan [2].

Neyropedagogika - pedagogika fani, kognitiv psixologiya va zamonaviy nevrologiyaning interdistsiplinar sintezi bo‘lib, miya faoliyatining neyrofiziologik va nevrobiologik qonuniyatlarini chuqur o‘rganish asosida evidensga asoslangan samarali ta’lim metodologiyasini ishlab chiqadigan innovatsion yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda [3].

Ingliz tili boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fundamental fanlardan biri bo‘lib, u nafaqat lingvistik kompetensiyalar va kommunikativ ko‘nikmalarni, balki yuqori darajadagi kognitiv qobiliyatlar, jumladan, tanqidiy fikrlash, metakognitiv monitoring va kreativ yondashuvni kompleks rivojlantirishga ham sistematik ta’sir ko‘rsatadi [4].

Tanqidiy fikrlash - bu ma’lumotlarni ongli ravishda tahlil qilish, kritik baholash, sintez qilish, alternativ yechimlarni generatsiya qilish hamda muammolarni hal qilishning oliy darajadagi metakognitiv ko‘nikmasidir [5].

Adabiyotlar tahlili. Neyropedagogika sohasida T.V. Akhutina, N.M. Pyatibratova, D.A. Farber kabi olimlar asosiy tadqiqotlar olib borgan [6]. Ularning ishlarida bolalar miyasining rivojlanish xususiyatlari, o‘qitishning optimal usullari va kognitiv jarayonlarning neyrofiziologik asoslari yoritilgan. Tanqidiy fikrlash muammolarini D. Halpern, R. Paul, L. Elder, M. Lipman tadqiq etgan [7]. Ular tanqidiy fikrlashning tuzilishi, uni rivojlantirish bosqichlari va ta’limdagi ahamiyatini ko‘rib chiqqan. Chet tillarini o‘qitishda neyropedagogik yondashuvlar E.I. Passov, I.A. Zimnyaya, G.V. Rogova tomonidan o‘rganilgan [8]. Mahalliy olimlar orasida J.J. Jo‘raev, R.X. Juraev, Sh.S. Sharipov boshlang‘ich ta’limda chet tillarini o‘qitish masalalarini ko‘rib chiqqan [9]. Ammo boshlang‘ich sinf ingliz tili darslarida neyropedagogik yondashuv asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasi yetarlicha o‘rganilmagan va bu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Neyropedagogika (yoki ta’limda neyrofan) - bu pedagogika va nevrobiologiyaning integratsiyasi bo‘lib, miya faoliyati qonuniyatlarini ta’lim jarayoniga qo‘llashni o‘rganadi [10]. Bu yondashuv quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi: Asosiy tamoyillar: Miya plastisitesi - miya hayot davomida o‘zgarishi va yangi neyron aloqalarni yaratishi mumkin. Boshlang‘ich maktab yoshida bu jarayon eng intensiv kechadi [11].

Bashorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish

“Story Prediction” mashqi orqali o‘quvchilarning bashorat qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Dars jarayonida hikoyaning boshlanishi o‘qiladi va o‘quvchilar voqealarning davomini taxmin qilishlari so‘raladi. Ular o‘z fikrlarini “I think...”, “Maybe...”, “Probably...” kabi iboralar yordamida ifodalaydilar. Neyropedagogik nuqtai nazardan bu mashq ijodiy fikrlash va tasavvur qilish qobiliyatlarini faollashtiradi, miya yangi neyron bog‘lanishlarni o‘rnatadi.

Baholash va xulosa chiqarish malakasi

“My Opinion” mashqi o‘quvchilarning baholash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Darsda biror hikoya yoki muayyan vaziyat muhokama qilinadi va o‘quvchilar o‘z shaxsiy fikrini bildirishlari talab etiladi. Ular “In my opinion...”, “I agree/disagree because...” kabi iboralardan foydalanadilar. Neyropedagogik jihatdan bu faoliyat yuqori darajadagi kognitiv jarayonlarni faollashtiradi, tanqidiy tahlil va baholash ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

Multisensor yondashuv

Neyropedagogik yondashuvda barcha his a‘zolari dars jarayoniga faol jalb etiladi. Visual komponent orqali rangli rasmlar, illyustratsiyalar, video lavhalar, animatsiyalar, grafiklar va diagrammalar qo‘llaniladi. Audial yo‘nalishda musiqa, fonogramlar, turli tovushlar va audio yozuvlar, she‘rlar hamda qo‘shiqlardan foydalaniladi. Kinestetik element esa jismoniy harakatlar va imo-ishoralari, sensorli materiallar bilan ishlash, role-play va drama faoliyatlari orqali amalga oshiriladi. Bu yondashuv miyaning turli qismlarini bir vaqtning o‘zida faollashtiradi va o‘rganish samaradorligini oshiradi.

Miyaga asoslangan ta’lim strategiyalari

Chunking strategiyasi ma’lumotni bo‘laklash prinsipiga asoslanadi. Yangi so‘zlar har safar 5-7 tadan oshmasligi lozim, topshiriqlar bosqichma-bosqich va ketma-ketlikda beriladi, murakkab mavzular kichikroq qismlarga ajratiladi. Bu usul miyaning qisqa muddatli xotirasiga ortiqcha yuk tushmasligini ta’minlaydi.

Spaced Repetition yoki intervalli takrorlash metodida yangi material bir necha marta, turli vaqt oraliqlarida qaytariladi. Takrorlash intervallari asta-sekin oshirib boriladi, bu esa uzoq muddatli xotirada saqlashni ta’minlaydi. Neyropedagogik tadqiqotlar ko‘rsatadiki, tarqatilgan takrorlash miyada yangi ma’lumotlarni mustahkamlashda ancha samarali hisoblanadi.



Emotional Anchoring yoki hissiy bog‘lash strategiyasida yangi so‘zlar ijobiy hissiyotlar bilan bog‘lanadi. Qo‘shiqlar, o‘yinlar va qiziqarli hikoyalar orqali o‘rgatish amalga oshiriladi, natijada o‘rganishga motivatsiya ortadi. Limbik tizim faollashganda ma’lumotlar yaxshiroq esda qoladi.

Movement Integration harakat integratsiyasi sifatida TPR (Total Physical Response) metodidan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Action songs yani harakatli qo‘shiqlar hamda kinesthetic activities ya’ni harakatlarga asoslangan mashqlar qo‘llaniladi. Bu yondashuv motor korteksni faollashtiradi va harakatli xotira orqali o‘rganishni mustahkamlaydi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari

Interaktiv doska yordamida multimedia taqdimotlar tayyorlanadi va interaktiv mashqlar hamda o‘yinlar o‘tkaziladi. Ta’limiy ilovalardan keng foydalaniladi, jumladan Kahoot orqali interaktiv viktorinalar, Quizlet yordamida lug‘at va flashcardlar, Duolingo orqali gamifikatsiyalangan o‘rganish amalga oshiriladi.

Virtual Reality texnologiyasi immersiv til muhitini yaratish va virtual sayohatlar hamda ekskursiyalar uyushtirish imkonini beradi. Gamification ya’ni o‘yin elementlarini darsga kiritish orqali ball to‘plash va yutuqlar tizimi joriy etiladi, raqobat va hamkorlik o‘yinlari tashkil qilinadi. Bu zamonaviy vositalar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va motivatsiyani yuqori darajada ushlab turadi.

Xulosa. Neyropedagogik yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning ilmiy asoslangan va samarali metodologiyasi hisoblanadi. U miya faoliyati qonuniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini optimallashtiradi. Boshlang‘ich maktab yoshi - bu tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning sensitiv davri. 7-10 yoshda miya plastisitesi yuqori bo‘lib, yangi neyron aloqalar tez shakllanadi. Ingliz tili darslari tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar beradi. Til o‘rganish jarayonida o‘quvchilar tahlil, sintez, baholash kabi yuqori darajadagi kognitiv jarayonlarni amalga oshiradilar.

Maktablarda neyropedagogik markazlar yaratish O‘quvchilarning kognitiv rivojlanishini monitoring qilish O‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashish seminarlarini o‘tkazish Zamonaviy o‘quv-uslubiy adabiyotlar yaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PQ-4708-son qarori “Ta’lim sifatini oshirish va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2. Akhutina T.V. Neyropedagogika va miyaning individual xususiyatlari. – Moskva: MGU, 2019. – 256 s.
3. Farber D.A., Dubrovinskaya N.V. Miya rivojlanishining funktsional tashkiloti. – Moskva: Fiziologiya, 2018. – 412 s.
4. Jo‘raev J.J., Nurmonov A. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2021. – 288 b.
5. Halpern D. Critical Thinking Across the Curriculum. – New York: Routledge, 2020. – 384 p

TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKALI KREDITLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Turdiyev Shaxriddin Erxonovich

Tashkent International University mustaqil izlanuvchisi

E-mail: sh.turdiyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezida tijorat banklarida ipotekali kreditlashning iqtisodiy mohiyati va uning moliyaviy tizimdagi o‘rni ilmiy asosda tahlil qilingan. Unda ipotekali kreditlashni kredit munosabatlarining alohida turi sifatida ko‘rilgan, uning huquqiy, moliyaviy va iqtisodiy jihatlarini yoritgan. Tezida ipotekali kreditning bank faoliyatidagi roli, ko‘chmas mulk bozori bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda aholining uy-joy bilan ta’minlanishidagi ijtimoiy ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ipotekali kreditlash, tijorat banklari, ko‘chmas mulk bozori, kredit siyosati, moliyaviy barqarorlik, garov, ijtimoiy siyosat.

DISTINCTIVE FEATURES OF MORTGAGE LENDING IN COMMERCIAL BANKS